



O'QUVCHI SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA

DIKTANTNING AHAMIYATI

Jadgarova Farida Baxtiyorovna ¹

Xushanov Alisher Oydin o'g'li ²

¹ Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika tutining, Turkiy tillar fakulteti, O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

² Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7194705>

ARTICLE INFO

Received: 01th September 2022

Accepted: 08st October 2022

Online: 13rd October 2022

KEY WORDS

O'quvchi, savodxonlik, diktant, yozma ish, matn.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'quvchilarda yozma savodxonligini oshirishda diktantning ahamiyati qay darajadali haqida fikr yuritiladi.

Diktant (lotincha, dicto - aytib turib yozdiraman) degan ma'noni anglatadi. O'quvchilarga imlo va tinish belgilariga doir qoidalarni o'rgatishda hamda bu qoidalar yuzasidan hosil qilingan malakani tekshirishda qo'llaniladigan yozma ish turidir. O'quvchining yozma savodxonligini oshirishda diktantning ahamiyati katta. U ta'lim jarayonida bilimlarni ongli o'zlashtirish mashqi sifatida qo'llaniladi. Bu o'rinda diktantning samaradorligi eshituv jarayonida imloviy, fonetik, morfologik qoidalar asosida yozishga qaratilgan. O'quvchi diktant yozish jarayonida xato qilmaslikka harakat qiladi. Xato qilmaslik ularning fonetik, leksik va grammatik bilimlari qay darajada o'zlashtirganliklariga bog'liq bo'ladi.

Diktantlar maqsadiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Ta'limiy diktantlar - bilim berishga yo'naltirilgan diktantlar.

2. Tekshiruv diktantlari - o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishga qaratilgan diktantlar.

Ta'limiy diktantlar - o'quvchilarning imlo qoidalarini yodlash, fonetik, so'z yasashi va morfologik tahlillarni o'rganish, og'zaki va yozma nutqning shakllanishi darajasini bilish uchun o'tkaziladigan diktantlar ta'limiy diktantlar deyiladi.

Ta'limiy diktantlarni ko'zlangan maqsadiga ko'ra uchga bo'lish mumkin: 1) Orfografik qoidalarga asoslangan ta'limiy diktantlar.

2) Nazariy bilimlarni mustahkamlashga asoslangan diktantlar.

3) Og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga asoslangan ta'limiy diktantlar.

Ta'limiy diktantlar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. lug'at diktant

2. saylanma diktant

3. ko'rsatuv diktant



4 yoddan yozish (o'z) diktant

5.ta'kidiy diktant

6.izohli diktant

7.ijodiy diktant

8.erkin diktant

Bunday diktantlarda asosi atibor so'zlar soniga emas balki o'quvchining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga e'tibor beriladi. Bunday diktant turlariga alohida dars soatlari ajratilmaydi.

Tekshiruv diktanti - diktantning bu turida asosiy e'tibor o'quvchilarning so'z, gap va jummalarni bexato va husnixat qoidalariga asoslangan holda yozishlariga e'tibor beriladi. Bunday diktantlarga alohida dars soati ajratiladi va o'quvchilarning diktant yozish bo'yicha olgan baholari qayd etib boriladi. O'quv yilining choraklarida, yarmida va oxirida xuddi shunday diktantlar o'tkaziladi. Bu diktantlar uchun so'zlarning soni va qiyinlik darajasi asosiy mezon hisoblanadi.

Lug'at diktantlar o'tilgan mavzular yuzasidan o'quvchilarning so'z boyligini tekshirish maqsadida o'rganilgan so'zlar, so'z birikmalari yoki gaplar asosida o'tkaziladi. diktantning bu turida o'tilgan mavzularga doir so'zlar, gaplar yoki turli xil ko'rgazmali qurollarmanba vazifasini bajaradi.

Saylanma diktantda o'quvchilar diktant uchun tanlagan matnning barchasini yozmaydi, balki o'tilgan mavzularga doir so'z va so'z birikmalarinigina yozadilar. Shuning uchun ham bu diktant turisaylanma diktant deyiladi. Shuningdek, bu diktant turida o'quvchilarning yozgan diktantlari aynan bir xil bo'lmaydi, chunki har bir o'quvchi o'zi olgan bilim doirasidagina yoza oladi.

Ko'rsatuv diktanti boshlang'ich sinfda o'qiydigan barcha o'quvchilarda o'tkaziladi. Bu diktant turining boshqa

diktantlardan farqi shundaki, diktant matni doskaga yoziladi va sodda va ravon qilib o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi.

Yoddan yozish diktanti boshlang'ich sinflarning barcha bosqichlarida o'tkaziladi. Bir parcha tanlab olinadi avval o'qituvchi o'qib beradi keyin bir ikkita o'quvchilarga o'qitiladi va barcha o'quvchilar yod olishlar uchun 5-10 daqiqa vaqt beriladi. Matni yodlash uchun berilgan vaqt tugagach doskadagi matn berkitiladi. O'quvchilar yodda qolganini yozishadi.

Ta'kidiy diktant bu ona tili fanidan o'tilgan mavzularga doir imlo va orfografik, talaffuz, morfologik va sintaktik qoidalarga asoslangan bo'ladi. Diktantning bu turini yozdirishdan oldin o'tilgan mavzularga doir qoidalar tahlillar albatta eslatiladi. Morfologik va sintaktik tahlillar doskada yoki proektor yordamida ko'rsatiladi. Shu sababdan diktantning bu turi ta'kidiy diktant deyiladi.

Izohli diktantning boshqa diktantlardan farqi shundaki, diktant matniga oid imloviy va boshqa qoidalari diktant yozdirishdan oldin tushuntirilmaydi. Shuning uchun o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatoliklar diktant yozib bo'lingandan keyin tuzatiladi va izohlanadi.

Ijodiy diktant o'rganilgan qoidalarni amalda qo'llay olish o'quvchilarning tilimizga oid imlo qoidalarini bilish darajasini aniqlashda katta yordam beradi. O'quvchilarda bu diktant turi orqali ta'limning keyingi bosqichlarida insholar, bayonlar, mustaqil ishlar va boshqalarni yozish haqida dastlabki ko'nikmalar shakllanadi.

Erkin diktant- bu diktant turi o'quvchilarning ijodiy fikrlash mahoratini tekshirishda katta ahamiyatga ega. O'quvchilar bu diktant turini yozish orqali o'zlarining nutqiy savodxonligini,



fikrlash qobilyatini namoyon etadilar. Erkin diktantning boshqa diktant turlaridan farqi shundaki, bunda o`quvchilar matn mazmunini o`zgartirmagan holda uning ichidagi so`zlarni, gaplarni o`zgartirib yozishlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak diktantlar o`quvchilarni ko`rish, eshitish va fikrlash qobilyatini shakllantirishda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Diktant o`quvchining og`zaki va yozma

savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosan ta'limiy diktantlarning o`rni juda kattadir. Bu diktantlarga alohida dars soatlari ajratilmasada ba`zan dars davomida 10 -15 daqiqa oralig`ida olinib o`quvchining og`zaki va yozma savodxonligini oshiradi.

References:

1. D.Eshonqulova, G.Rahmatova "Diktantlar to`plami" "Navro`z" nashriyoti Toshkent 2018
2. Buranova.SH.M, "Ona tili darslarida yozma ishlarni tashkil etish", "Tafakkur avlodi" Toshkent 2020